



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK BOSHQARUV TIZIMINI TASHKIL ETISH ORQALI TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti I-bosqich magistranti

Jurayeva Shalola Dehqonboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik boshqaruv tizimini yaxshilash hamda zamonaviy pedagogik yondashuvni qo'llash orqali yuqori samaradorlikka erishish yo'llari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sifat monitoring, Digital, HEMIS, Global ta'lim, platformalari, multimedia, Interaktiv yondashuvlar.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik boshqaruv – bu innovatsion yondashuvlar, pedagogik yetakchilik va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish tizimidir. U rahbar va pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda ta'lim jarayonlarini monitoring qilish kabi muhim omillarga asoslanadi.

Zamonaviy pedagogik boshqaruvning asosiy yo'nalishlari: Innovatsion yondashuvlar: Ta'lim menejmentiga yangi axborot texnologiyalarini va innovatsion pedagogik usullarni tatbiq etish.

Pedagogik yetakchilik: Rahbarlarning nafaqat ma'muriy, balki pedagogik jarayonlarga yetakchilik qilishi, o'qituvchilarni motivatsiya qilishi.

Kadrlar malakasini oshirish: Rahbar va professor-o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish.

Sifat monitoringi: Ta'lim sifatini baholash va nazorat qilishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish.



Xalqaro hamkorlik: Xalqaro ta'lim standartlari va tajribalarini o'rganish hamda amaliyotga joriy qilish. Ushbu boshqaruv usuli ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimlari doimiy ravishda o'zgarib, yangilanib turadi. Ushbu dinamik muhitda ta'lim jarayonini samarali boshqarish - ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Zamonaviy pedagogik boshqaruv usullari ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay holga keltiradi, bunda har bir o'quvchining individual ehtiyojlari inobatga olinadi. Shunday qilib, pedagogik boshqaruv nafaqat o'qitish jarayoni, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ta'lim muassasasining umumiy ijobiy ijtimoiy muhitini yaratish uchun ham muhimdir. Zamonaviy pedagogik boshqaruv tushunchasi o'z ichiga ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatlarni olgan holda faqat ta'lim sifatini emas, balki o'quvchilarni tayyorlash va ularning shaxs sifatida rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Boshqaruvning innovatsion yondashuvlari, jamoaviy ishlash va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish muddatida pedagogik boshqaruvning ahamiyati yanada oshadi. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi va pedagogik muhitni yanada samaraliroq qiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Pandemiya davrida davlat raqamli vamasofaviy ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratyapti. 2020-yil PF-6079 sonli farmonda "Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasi tasdiqlanib, maktab va oliy ta'limda masofaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish topshirilishi berilgan. Maktabgacha va maktab tizimida PF-152 qaror bilan esa innovatsion pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib keldi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish asosiy talab sifatida qo'yilmoqda. Elektron boshqaruv tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari, o'quv jarayonini monitoring qilish vositalari rahbarlik faoliyatining samaradorligini oshiradi. Innovatsion texnologiyalar asosida boshqaruv nafaqat vaqt va resurslarni tejashga, balki ta'lim



sifati monitoringini tezkor amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida HEMIS kabi elektron jurnal, dars jadvali, attestasiyalarni boshqarish tizimlari yo'lga qo'yilgan. Xalqaro standartlar va akademik mobillik.PF-73 farmoni ta'lim muassasalaridaxalqaro dasturlarni joriy qilish va professor-o'qituvchilarni tanlov asosida chet ellarga malaka oshirishga yuborishni ilgari suradi. Shu bilan birga oliy ta'limda akademik mobillik, hamkorlik va dars dasturlarini modernizatsiya qilish bo'yicha PQ-289 qaroridan foydalaniladi. Global ta'lim makoniga integratsiyalashuv pedagogik boshqaruvni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, xorijiy tajribalarni o'rganish, o'qituvchilar varahbarlarning akademik mobilligi, xorijiy malaka oshirish dasturlari ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshiradi. Boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakterli majmui bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan. Bunda boshqarish faoliyati birbiriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga

oshiriladi. Boshqarish vazifalarini amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqarish tizimini tashkil etiladi. Bu asosan boshqarish sub'ekti direktor oliy o'quv yurtlarida esa rektor o'z navbatida boshqarish bo'g'inlarini tashkil etadi. Shu bo'g'inlar orqali u boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mavjud ob'ekt rivojlanishini tezlashtirishga xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek, boshqarish sub'ektlar faoliyatining harakatlari majmui bo'lib, har xil vazifalarni ado etish hisoblanadi.

Bugungi kunda ma'lumki ta'lim tashkilotlarini boshqarish bilan dolzarb



muammolar yuzaga kelgan. Ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo tizimga

qaratish kerak.

Ta'limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri , jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida. Qisqa

qilib aytganda zamonaviy sharoitda eskicha boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o'tkazish kerak.

Xususan bugungi zamon talablariga ko'ra ta'lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar

bilan yechish mumkin:

- Boshqaruvning tarkibiy qisimlari, maqsad va vazifalarini tog'ri tanlash;
- Bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish;
- Kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish;
- Ta'lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish;
- Jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta'lim tizimini yaratish;

Avvalo boshqaruv ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi



belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini

va usulini belgilaydi. Demak ko'rinib turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining

o'ziga xos sohasidir.

Zamonaviy pedagogik boshqaruv usullarining ta'lim jarayoniga ta'sirini

o'rganish, ko'p qirrali yondashuvlarni talab etadi. Ushbu bo'limda ta'lim jarayonida

qo'llaniladigan asosiy metodlar va yondashuvlar aniqroq ko'rib chiqiladi. Ular

o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish, o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va

muammolarni yechish uchun samarali strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Loyiha asosidagi o'qitish metodologiyasi o'quvchilarning o'z bilimlarini

amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuvda o'quvchilar biror

ma'lum loyiha ustida ishlash orqali tajriba orttiradilar. Bu metod nafaqat bilimlarni

chuqurlashtiradi, balki ijodiy fikrlash, jamoada ishlash va muammoni hal qilish

ko'nikmalarini ham oshiradi. O'quvchilar loyihalarini taqdim etish jarayonida o'z

fikrlarini ochiq ifoda etishni, tanqidiy fikr yuritishni va boshqalar fikrlarini baholashni o'rganadilar. Zamonaviy pedagogik boshqaruvning muhim jihati ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashdir. Bu metod doirasida onlayn ta'lim platformalari, multimedia resurslari va ta'lim uchun maxsus dasturlar o'z



ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarga yanada qulay va samarali ta'lim muhitini yaratish mumkin. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tezkor aloqa o'rnatish, ta'lim jarayonining individualizatsiyasi va harakatlantiruvchi imkoniyatlarni taqdim etish mumkin.

Интерактив darslar metodida o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar.

Ushbu metod, savol-javoblar, guruh muhokamalari va interaktiv vazifalar orqali

ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirish va o'zaro aloqalarini rivojlantirish imkoni

yaratiladi. Interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni ta'lim jarayonida motivatsiyalashga yordam beradi. Bu, shuningdek, o'quvchilar orasida raqobatni kuchaytiradi, ular o'z bilimlarini, qobiliyatlarini baholaydi va kuchli tomonlarini e'tiborga olishadi. Nazorat va baholash metodlari pedagogik boshqaruvning muhim qismi hisoblanadi. O'quv jarayoni davomida o'quvchilarning yutuqlarini baholash, ularning individual rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Baholash tizimlari, masalan, o'quvchilarni mustaqil ishlashga, jamoada ishlashga, shuningdek, o'z fikrini bildirishga undaydi. Refleksiya jarayoni esa o'quvchilarga o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqish, ulardan xulosa chiqarish va yutuqlari ustida ishlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa: Ta'lim muassasalari faoliyatini maqsadli boshqarish yosh avlod

tarbiyasida, o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion

texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yangi

o'sib kelayotgan avlodning ta'lim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiytexnik bazasidan unumli foydalanishni ta'minlash, oliy va o'rta maxsus ta'limi



tizimidagi yo'nalishlar va mutaxassislar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv

dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish

borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.5. Камилова, Г. А., & Тураева

2. ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.6. Камилова, Г. А., & Курбанова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63))

3. Камилова, Г. А., & Курбанова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ.

4. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/128481>

5. Zunnunov A., M. Xayrullayev, N. Xotamov, D. SHodiyev O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar. -T: Fan, 1996, 351 bet.

6. Ibragimov X. I. Teoreticheskiye osnovy professionalnogo samovospitaniya budushix uchiteley nachal'nykh klassov (na primere pedvuzov): pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T., Qori Niyoziy nomli O'zPFTI, 1999.- 307 b.